
“Yong‘in xavfsizligi oyligi” doirasida texnika namoyishi o‘tkazildi

Qo‘sh tepa tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi xodimlari tomonidan tumandagi 21-umumta‘lim maktabi o‘qituvchi va o‘quvchilari ishtirokida “Yong‘in xavfsizligi oyligi” doirasida texnika namoyishi o‘tkazildi.

Tadbir davomida is gazi va sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanish, gaz va havo aralashmasining chaqnashi, yong‘inlar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish, kuz-qish mavsumida xavfsizlik qoidalariga qat‘iy amal qilish, birlamchi yong‘in o‘chirish vositalaridan foydalanish tartibi hamda gaz va elektr jihozlaridan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.





2024-11-21 13:47:56